

"IKKI ESHIK ORASI"- ROMANIDAGI REALIYALAR TAHLILI*Normurodova Zamira**Temirova Dilnoza**Davlatova Dildora**Normurodova Nurbibi**Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Universiteti talabalari*

Anotatsiya: Maqolada realiya so'zining asosiy tushunchasi uning mohiyati, tilshunoslikda tutgan o'rni hamda realiya birliklarning boshqa leksik birliklar orasidagi asosiy farqlari ochib berilgan. Shuningdek, realiyalarni tasniflash masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. Realialar xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiruvchi muhim omil bo'lib, lug'at boyligini oshirishda va milliy o'ziga xoslikni ifodalashda beqiyos rol o'ynaydi. Realialarni o'rganish va tadqiq qilish jarayonlarini kengaytirish orqali muayyan tilning ichki taraqqiyotida yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatish va madaniyatlararo farqlarni aniqroq yoritish imkoniyati paydo bo'ladi. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" asarida uchraydigan milli realialarni tahlil qiladi. Asarda uchraydigan sandal, arg'umoq, xontaxta, so'ri, mullavachcha, va boshqa milliy tushunchalar tarjima jarayonida o'zining ijtimoiy va madaniy kontekstini yo'qotadi. Maqolada tarjima qiyinchiliklari va realialarning o'ziga xosligi bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Milliy koloritni saqlab qolish uchun tarjimada izohlar va sharhlar kiritish zarurligi ta'kidlanadi. Shu orqali, o'zbek madaniyati va asarning to'liq tushunilishi uchun muhim qirralar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Paytava So'ri Boloxona Do'ppi Sandal Paranja Kimxob Mishiqi Arg'umoq Obdasta Paxsa Mullavachcha Bultur Shoti Oqsoqol Baqaterak Xontaxta

**ANALYSIS OF REALITIES REFLECTED IN THE NOVEL
"BETWEEN TWO DOORS"**

Annotation: The article reveals the essence of the concept of realia, its role in linguistics, the difference between realia units and other lexical units. The issues of classification of realities were also touched upon. The relationship of the units with the people's way of life, worldview and culture and their role in increasing the vocabulary and reflecting the national color is explained. Understanding and analyzing realia is crucial for delving into the unique characteristics of a language's internal development and for highlighting the distinct differences between cultures. This article focuses on examining the national realities presented in O'tkir Hoshimov's work "Between Two Doors". Sandal, argumoq, khontakhta, sori, mullavachcha, and other national concepts found in the work lose their social and cultural context during the translation process. The article highlights the difficulties of translation and the problems related to the

uniqueness of realities. In order to preserve the national color, it is emphasized that it is necessary to include comments and comments in the translation. In this way, important aspects for the complete understanding of Uzbek culture and the work are revealed.

Key words: Paytava So'ri Bolochona Do'ppi Sandal Buranji Kimkhob Mishiki Arg'umaq Obdasta Pakhsa Mullavachcha Bultur Shoti Elder Bakaterak Khontakhta

Kirish: O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari o'zbek milliy adabiyotining yorqin namunasi. Asar XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi O'zbek jamiyati hayotini, undagi turmush tarzi, ijtimoiy va madaniy munosabatlarni aks ettiradi. Ushbu asarda ko'plab realiyalar (realiyalar) - milliy madaniyatga, urf-odatlariga, jamiyat tuzilmalariga bog'liq tushunchalar tasvirlangan. Biroq, bu realiyalarni boshqa tillarga, xususan ingliz tiliga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki ularning madaniy koloritini to'liq aks ettirish mushkul. Roman inson taqdiri va umrining murakkabliklarini ajoyib tarzda aks ettirib, o'quvchining qalbiga chuqur ta'sir qiladi. Avvalo, adabiyotda tinchlikka tahdid soluvchi urushning og'ir oqibatlarini ko'rsatib beriladi. Urushning dahshatlari har bir otanonaning qalbini yaralaydi, ularga qayg'u va alam keltiradi. Ushbu hikoya umuminsoniy qayg'u va og'riqlarni aks ettirib, o'quvchining qalbiga chuqur ta'sir qiladi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlarini, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so'zlaydi. Yozuvchining roman hodisalariga chuqur kirib borishi tufayli har bir epizod o'quvchi qalbiga ta'sirli taassurot qoldiradi. Asar hayot manzaralari va insonlararo munosabatlarni realistik va samimiy tarzda tasvirlaydi, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi esa hikoyani yanada jozibador qiladi. Ushbu maqolada asarda uchraydigan realiyalarni va ularning ingliz tiliga tarjimasidagi muammolarni tahlil qilamiz.

"Realia" so'zi lotincha "real", "moddiy" yoki "haqiqiy narsalar" degan ma'noni anglatadi. Bu atama mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni ifodalaydi. Realialarni boshqa tushunchalardan ajratib turadigan asosiy xususiyat shuki, ular aniq predmet yoki narsaga oid ma'noga ega bo'ladi. Realialarni chuqur o'rganish va ularning milliy va tarixiy o'ziga xoslikni aks ettirish xususiyatlarini tahlil qilish bo'yicha ishlar XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Mazkur masalaning haqiqiy mohiyati etiborga olinmaganligi sababli asosiy to'xtamga kelisholmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilib ko'rsak, realialarni baholash bo'yicha ikki xil nuqtai nazarni ko'rishimiz mumkin:

Jumladan, M. L. Vaysburdning ta'rifiga ko'ra, realia - bu ma'lum bir mamlakatning ijtimoiy va madaniy hayotiga xos bo'lgan hodisalar, tashkilotlar, buyumlar va shaxslarning nomlari yig'indisi. Ushbu tushuncha dastlab 1941-yilda Andrey Fedorov tomonidan Rus tarjimashunosligiga kiritilgan bo'lib, u realia so'zlarini

"ingenu" deb atashni taklif qilgan. A.V.Fedorov "realia" deganda mahalliy hayot va turmush tarzi bilan bog'liq, boshqa xalqlarda tengi bo'lmagan so'zlarni nazarda tutgan. Realialar boshqa tillarga tarjima qilinishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki ular o'ziga xos madaniy kontekstda tushuniladi. Maqolada keltirilgan fikrlar realia so'zlarining madaniy kontekstni aks ettirishdagi ahamiyatini ta'kidlab beradi. Ushbu so'zlar o'ziga xos mamlakatning ijtimoiy va madaniy tuzilishini, an'analari va tarixini ko'rsatuvchi muhim elementlardir. Shuning uchun realia so'zlarini tarjima qilishda ularning madaniy kontekstini chuqur tushunish juda muhimdir tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa xalqlarning tarixi, muhim voqealari, madaniyati, an'analari va siyosiy hayoti haqida etarlicha bilimga ega bo'lmaslik, til bilimlarini chuqurlashtirishga to'sqinlik qilib, til kompetensiyasini pasaytirishi mumkin. A.D. SShveytserning fikricha, realialar o'ziga xosligi bilan boshqa til va madaniyat vakillari uchun noma'lum bo'lgan tushunchalardir.

G'arb tarjima maktabi vakillaridan biri bo'lgan Pedersen, "realia" tushunchasini juda noaniq va chalkash deb hisoblaydi, chunki u turli sohalarda turli ma'nolarda ishlatiladi va aniq chegaralari yo'q. Uning fikri, "real narsalar" deb atalishi haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki ular tilning ichki xususiyatlarini, hodisalarni, borliqqa bo'lgan munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Realialar so'zlar mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin.

Realialarni tarjima qilish uchun turli strategiyalar mavjud: ular fonetik transkripsiyadan tortib, umumiy ma'no mumkinligi kuzatiladi. tarjimasigacha. o'zgarishi Milliy so'zlar tarjimasida asosan quyidagi usullardan foydalaniladi.

Transkripsiya va transliteratsiya dan ko'p hollarda atoqli otlar, davlat korxonalari, o'quv yurtlari nomlari kabilarni qayta hosil qilishda foydalaniladi. Transliteratsiya fransuz tilidagi "tarjima qilish" ma'nosidagi "translitération" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum bir yozuvda yozilgan matn yoki qo'lyozmani boshqa (hozirgi) yozuvga o'tkazish, ya'ni bir yozuv harflarini boshqa yozuv harflarini ishlatib ifodalash usulini anglatadi. Aslida, transliteratsiyaning asosiy maqsadi, asliyatda qo'llangan milliy belgilar bilan bog'liq lisoniy vositalar tarjima tilida aniq muqobilga ega bo'lmaganda, ularni asl shaklida saqlab qolishdir. Masalan, ruscha "tansevat" so'zi o'zining birgina ma'nosi bilan o'zbekcha "raqsga tushmoq" birikmasiga mos ekvivalent bo'la olar edi. Uning boshqa bir ma'nosi - erkak va ayolning bel-u qo'l ushlab davrada aylanishi, bu usulda raqsga tushish o'zbeklarga xos bo'lmagani tufayli, o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega emas. Transkripsiyalash - ya'ni nusxa ko'chirish. Asl so'z boshqa alifboda yozilsa, bu transliteratsiya deb ataladi. O'rganilgan tilning talaffuz qoidalariga muvofiq transkripsiya qilish.

Analogiya o'xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil

tushuncha bilan berish. Masalan, E. Vohidov Gyotening "Faust" asari tarjimasida "yuristlar"ni - "ulamo", "magistr"lar"ni - "fuzalo" deb berishi ham to'g'ri emas.

Kalkalash usuli - fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish. Mazkur usul tarjima amaliyotida keng qo'llanilib, muqobilsiz so'zning morfemalari yoki muqobilsiz turg'un so'z birikmasining leksemalari tarjima tiliga asliga muvofiq holda so'zma-so'z o'g'iriladi. Masalan, o'zbek tilidagi bolalar bog'chasi birikmasi (ruscha detskiy sad).

Tasviriy usul bunda asliyat tilidagi bir so'zning o'rniga tarjimada so'z birikmasi, frazeologizm yoki butun bir gap qo'llanilishini mumkin.

Biz realiyalarni boshqa tomondan o'rganadigan bo'lsak, Bu so'zlar boshqa tillarda o'ziga mos keladigan so'zlar bilan ifodalansa ham, ularning ko'chma ma'nolarida o'zimizning milliy va madaniy identitetimiz bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shuningdek, ushbu so'zlar bizni turmush tarzimiz, odatlarimiz va bizni o'rab turgan tevarak atrofimizdagi tabiat bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida o'zbek millatiga xos bo'lgan realiya so'zlar bor. Ular, Asarda keltirilgan asosiy realiyalar va ularning tahlili:

1. Paytava¹ : hozirda ham o'rta osiyoni ba'zi joylarida keng foydalaniladi Paytava oyoqqa o'rash uchun mo'ljallangan mato bo'lagidir (**16-bet**)

2. So'ri² : Tok, qovoq va sh. k. chirmashuvchi o'simliklarni o'stirish, ko'tarib qo'yish uchun shiypon shak-lida, tik yoki qiya qilib ko'tarilgan mosla-ma, qurilma (**16 bet**)

3. Boloxona³ : imoratni 2-chi qavati va shu ikkinchi qavatdagi xona (**17 bet**)

4. Atlas⁴ : tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Turli xil naqshlardan iborat. Tanda ipi abrbandi usulida bo'yab bezatiladi (**68 bet**)

5. Sandal tanha⁵ : mahalliy isitish vositasi. O'rta Osiyoda, va boshqa Sharq mamlakatlarida ishlatilib kelingan. Shuning uchun xonaning bir chetiga chuqurcha kazilib ichi maxsus shaklda ishlanib, suvaladi (**194 bet**)

6. Do'ppi⁶ : yengil bosh kiyimi. Qadimdan eroniy va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Turkiston O'zbekiston va Tojikiston hududida milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlning do'ppisidan o'zbek do'ppilarining farqi o'ziga xosligi (**204 bet**)

7. Kimxob⁷ : (fors.) tanda ipi zar, arqog'i ipakdan gul (naqsh) hosil qilib to'qilgan qimmatbaho mato. Zardi ipining rangiga qarab sariq, kumush rang yoki oq deb

¹ O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" Toshkent Uzbekistan .1986.16-bet

² O'sha manba. 16-bet

³ O'sha manba. 17-bet

⁴ O'sha manba. 68-bet

⁵ O'sha manba. 194-bet

⁶ O'sha manba. 204-bet

⁷ O'sha manba. 243-bet

nomlangan; ipagining rangiga qarab esa ko'k pushti qizil deb farqlangan (**243 bet**)

8. Paranj⁸ : ko'pchilik musulmon ayollarining yopinchi; chachvon bilan birga ansambl hosil qilgan. Bichimi keng to'n shaklida bo'lib, yelkadan pastga tomon torayib boruvchi uzun bandagi etakka yaqin joyda bir-biriga chatib birlashtiriladi (**243 bet**)

9. Mishiqi⁹ : 1 Burnidan mishig'i oqib turadigan. Mishiqi bola O'tkir Hoshimov "ikki eshik orasi" romanida (**249 bet**)

10. Arg'umoq¹⁰ : zotli chopqir otlarga Sharq xalqlari bergan umumiy nom. Bu nom bilan ko'proq arab, axaltaka, yovmut, qorabayir kabi ot zotlari ataladi. (**250 bet**)

11. Obdasta¹¹ : oftoba ro'zg'or buyumi; yuz-qo'lni yuvishda ishlatiladigan idish. Obdasta bo'g'zi uzun va tor, quyi qismi (qorni) keng, ba'zan tubida chambaragi bo'ladi (**270 bet**)

12. Osh Palov¹² : osh(asosan turkiy va eroniy xalqlar, shuningdek Osiyoning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan taom (**274 bet**)

13. Paxsa¹³ : Pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qavati, qatori (**301 bet**)

14. Mullavacha¹⁴ : madrasa talabasi, 2, mullalarning bolasi, ulomalarning bolasi (**330 bet**)

15. Shoti¹⁵ : Aravaning o'qi va g'ildiragidan tashqari yuqori qismi (**344 bet**)

16. Oqsoqol¹⁶ : soch soqoli oqargan kekxa odam mo'ysafid (**348 bet**)

17. Baqaterak¹⁷ : Teraklarning tarvaqaylab o'sadigan yo'ldoshlariga mansub turi qoratetak (**323 bet**)

18. Xontaxta¹⁸ : bezatib qo'yilgan dasturxon O'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladi (**430 bet**)

Xulosa: O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida aks ettirilgan o'zbek realiyalari O'zbek madaniyati va jamiyatining o'ziga xos qirralarini namoyish etadi. O'tkir Hoshimov asarlari ichida qamrovi, o'quvchi qalbiga yaqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Unda adib qariyb 40 yillik davrni o'z ichiga olgan, bir qancha chigal va murakkab taqdirilar misolida o'z xalqining urush davrida boshdan kechirgan hayoti, qismati haqida mahorat bilan qalam tebratgan. Zamon va davr qanday sharoitda kechishidan qat'iy nazar insoniy qadr-qimmat tushunchalarini saqlab qolgan, taqdirini el-yurti, xalqi, vatani taqdiri bilan bog'lagan, farzandidan ayrilganida ham qalbiga

⁸ O'sha manba. 243-bet

⁹ O'sha manba. 249-bet

¹⁰ O'sha manba. 250-bet

¹¹ O'sha manba. 270-bet

¹² O'sha manba. 274-bet

¹³ O'sha manba. 304-bet

¹⁴ O'sha manba. 330-bet

¹⁵ O'sha manba. 344-bet

¹⁶ O'sha manba. 348-bet

¹⁷ O'sha manba. 323-bet

¹⁸ O'sha manba. 430-bet

quvonch baxsh etishi mumkin bo'lgan boshqa sababni o'zi uchun yarata olgan, hayotini sevgi-muhabbat tuyg'ulari bilan bezamoqchi bo'lgani holda urush hukmiga tobe bo'lib qolgan insonlar qismatini ifodalovchi ushbu asar mutolaasidan so'ng bugungi o'tayotgan tinch-omon hayotingiz, farzandlaringiz baxti uchun shukrona aytasiz. Asar aynan shu jihati bilan qalblarga yaqin. Tarjima jarayonida ushbu realiyalarni to'g'ri aks ettirish, madaniy kontekstlarni tushuntirish orqali asarning mazmunini saqlash muhim. Ingliz tilidagi tarjimalarda ko'p hollarda milliy an'analar va urf- odatlar konteksti yo'qoladi, bu esa asarning to'liq tushunilishi va baholanishiga ta'sir qiladi. Shu sabab tarjima jarayonida milliy madaniyatni to'g'ri yetkazish uchun qo'shimcha izohlar va madaniy sharhlar talab etiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. E. Mamatov "Zamonaviy Lingvistika" 2019, Toshkent
2. Butayev Sh., Irisqulov A., Ing.-O'zb, O'zb-Ing. Lug'at. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Bakiyev F "Gid ekskursivodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi" maqolasi, "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
4. Bakiyev F. "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
5. Bakiyev, A. (2015). O'zbek va ingliz tillaridagi madaniy realiyalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 5(1), 45-50
6. Nabiev, A. (2018). O'zbek adabiyotidagi madaniy kodlar. Toshkent: Yangi asr avlodi
7. E.Ochilov "Badiiy tarjima masalalari"-Toshkent, 2014.
8. Makhmudov, A. (2021). Tarjima jarayonida madaniy kontekst: muammolar va yechimlar. Filologiya va tillar ta'limi, 6(2), 78-85 asr avlodi
9. Nabiev, A. (2018). O'zbek adabiyotidagi madaniy kodlar. Toshkent: Yangi
10. Rahmonov, S. (2020). Adabiy tarjima va madaniyatlararo muloqot. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0Ie2GvAAAAAJ&citation_for_view=0Ie2GvAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
12. Salihov, B. (2013). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sharq.
13. Ötkir Hoshimov. (1985). Ikki eshik orasi. Toshkent: O'qituvchi. Khamraev, M. (2006). O'zbekiston adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0Ie2GvAAAAAJ&citation_for_view=0Ie2GvAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC